MOLLYUSKALARNING KELIB CHQISHI, TURLARINING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI VA KLASSIFIKATSIYASI

Xaydarova Nodirabonu,
Xasanova Gulshanoy
Ilmiy rahbar: **Kozimov Akbarjon**
Andijon davlat pedagogika instituti
Tabiiy fanlar fakulteti Biologiya yo`nalishi 1-bosqich talabalari

Annotatsiya: Ushbu maqolada mollyuskalarining xilma-xilligi tarqalishi klassifikatsiyasi targ`ib qilingan bo`lib , ularning ijtimoiy hayot uchun foydali va zararli hususiyatlari haqida ma`lumot olish mumkin.

Kalit so`z: Plathelminthes, Sipuncula, Annelida, polixet, troxofora, kembriy, Aplacophora, Polyplacophora, Monoplacophora , Scaphopoda , Cephalopoda.

Аннотация: В данной статье предложена классификация распространения разнообразия моллюсков, а также получены сведения об их полезных и вредных для общественной жизни особенностях.

Ключевые слова: Plathelminthes, Sipuncula, Annelida, полихета, трохофора, кембрий, аплакофора, полиплакофора, моноплакофора, Scaphopoda, головоногие.

Abstract: In this article, the distribution classification of the diversity of molluscs is promoted, and information can be obtained about their useful and harmful features for social life.

Key words: Plathelminthes, Sipuncula, Annelida, polychaete, trochophora, Cambrian, Aplacophora, Polyplacophora, Monoplacophora, Scaphopoda, Cephalopoda.

Mollyuskalar filogenetik jihatdan hayvonlarning eng qadimiy guruhi bo`lib , kembriy davridayoq hozirgi zamon mallyuskalar tipiga kirgan hamma sinflarining vakillari bo`lgan. Mollyuskalarning kelib chqishi jihatidan Plathelminthes, Sipuncula va Annelidalarga bog`liqligi ko`p muhokamalarga sabab bo`lmoqda. Biroq hozirda mollyuskalarning kelib chiqishi Plathelminthesga nisbatan Annelidalarga yaqinligi e`tirof etilmoqda. Mollyuskalarning tuzilishi ko`p jihatdan o`ziga hos bo`lganligi bilan ularda bir qancha belgilar borki , shu belgilar mollyuskalarni hammadan ko`ra halqali chuvalchanglarga o`hshatishga imkon beradi. Bu belgilar avvalo embrional rivojlanish bilan postembrional rivojlanishning turli stadiyalariga ta`luqlidir, ya`ni tuxumining xuddi polixetalar tuxumiga o`xshab spiralsimon bo`linishi (bosh oyoqli mollyuskalar bunga kirmaydi) blastomerdan paydo bo`ladigan dastlabki og`iz , mezodermaning birinchi og`izligiga xarakterli ravishda teloblastlardan paydo bo`lishi. Po`sembrional rivojlanish davrida ko`pgina turlarida ko`riladigan troxoforasimon lichinka annelidlar uchun ham , mollyuskalar uchun ham harakterlidir. Manashu faktlarning hammasi mollyuskalar kelib chiqishi jixatidan halqali chuvalchanglar (Annelida) bilan shubhasiz bog`liq deb ta`kidlashga imkon beradi.

Ko`pchilik mollyuskalar bilaterial simmetriyali hayvonlar. Biroq bir qancha turlarida organlarining joylashishi o`zgarib , tana simmetriyasi ikkilamchi tuzilib assimetrik shakilga kiradi. Ko`pchilik mollyuskalarning tanasi bo`g`imlarga bo`linmagan . Faqat tuban tuzilgan mollyuskalarda metametrik tuzilishga xos bo`lgan belgilarni ko`rish mumkin. Tanasi bosh, gavda va oyoq qismlardan iborat. Mollyuskalar tipiga xilma-xil tuzilgan 150000 ga yaqin tur kiradi. Bu tip ikkita kenja tipga ajratiladi:

1)Yonbosh nervlilar

2) Chig`anoqlilar

Yonbosh nervlilar (Amphineura) kenja tipi vakillariga bir necha mm dan 35 sm gacha kattalikdagi ikki yonlama simmetriyali mollyuskalar kiradi. Ichki tana xaltasi bo`lmaydi . Mantiya kutikulasi sirtdan ohak tangachalar bilan qoplanadi. Ko`pchilik mollyuskalar tanasini orqa tomondan o`zaro harakatchang tutashgan alohida qalqonchalardan iborat chig`anoq yopib turadi . Boshida ko`zlari ,paypaslagichlari va statotsitlari bo`lmaydi. Nerv sistemasi tana bo`ylab joylashgan ikki juft nerv tomirlaridan iborat. Bu tomirlar halqum atrofida va anal teshigidan keyingi joyda o`zaro tutashadi. Yonbosh nervlilarga 1300 ga yaqin mollyuskalar turi kiradi ularga quyidagi sinflar bolinadi:

Qalqondorlar

Xitonlar

qalqonsizlar ya`ni egatcha qorinlilar

Chig`anoqlilar ( Conchifera) kenja tipining tanasi chig`noq ichida joylashgan. Chig`nog`i yaxlit ikki tavaqali bo`ladi. Nerv sistemasi tarqoq tugun tipida tuzilgan. Yon nerv stvollari orqa ichakdan keyinroqda tutashgan bo`ladi. Ko`zlari va paypaslagichlari boshida joylashgan . Muvozanat saqlash organlari rivojlangan. Chig`noqlilar kenja tipi quyidagi sinflarga bo`linadi:

Monoplakoforalar

Qorinoyoqlilar

Kurakoyoqlilar

Plastinkajabralilar

Boshoyoqlilar

Quyidagi jadvalda 5 xil sinfning tashqi tuzilishi , ovqat hazim qilish, nafas olish,qon aylanish, nerv, ayrish va ko`payish organlar sistemasidagi oziga hos hususiyatlari keltirib o`tilgan:

	Qalqondorlar va Xitonlar sinifi	**Monoplakofo-ralar sinifi**	**Qorinoyoqlilar sinifi**	**Plastinka-Jabralilar sinifi**	**Bosh oyoqlilar sinifi**
Tashqi tuzilishi	Tanasi orqadan qorin tomonga yassilashgan uzunchoq oval shaklda; bosh, gavda va qorin bo`limdan iborat.	Chig`anog`i qubba likopcha yoki spiralsimon shakilda bo`lgan. Tanasi kichikbosh, ancha baland gavda va diskka ohshash kengay-gan oyoqdan iborat.	Tanasi assimet-rikjoylashgan. Bosh qismi ta-nasidan anniq ajralib turadi. Yagona oyog`i keng va yassi tovondan iborat	Plastinkajabra li-lar chig`anog`i ikkita palladan iborat , tanasini ikki yon tomon-dan qoplab turadi. Boshi bo`lmaydi.Oy o-g`i ponasimon.	Chig`anog`i reduksiyaga uchragan bo`lib , mantiya ostida saqlanib qolgan. Tanasi ikki qism bosh va gavdadan iborat
Ovqat hazm qilish Sistema-si	Bularning halqumi qalin kutikula bilan qoplanib unda radula tishlar bor.O`rta ichak juda uzun, jigar	Halqum, qizilo`n-gach, oshqozon, o`rta ichak va orqa ichakdan iborat. Bularning ham halqumida qirg`ichli	Halqum ancha uzun bo`lib qizil-o`ngachga ochi-ladi, u kengayib jig`ildonni hosil qiladi.	Og`zining ikki yonida ikkita parraklari bor bu oziqlanishda yordan beradi. Bosh qismi re-duksiya sabab	Hazm qilish sistemasi juda murakkab tuzil-gan. Muskulli halqumda qirg`ich tili bor.

	naylari yo`li ochiladi.	shoxsimon tishchalari bor.	O`rta ichakni xaltasi-mon kengaygan qismi oshqozon deyiladi.	hazmqilish sis-temasining bosh qismlari bo`lmaydi.	
Nafas olish sistemasi	4juftdan 80 juftgacha jablari orqali nafas oladi.	Nafas olish siste-masi juda sodda bo`lib. Metamer joylashgan.	Suvdagi mollyuskalar ktenediy jabra-lar orqali nafas oladi. Quruqlik-dagi vakillarida esa o`pka tarqqiy etgan.	Jabralar odatda ikkita kteniyida-lardan iborat bo`lib, mantiya bo`shlig`ida oyog`ining ikki yonida joylashggan.	Haqiqiy kteniydiylarda n iborat bo`lib , 2yoki 4juft holatda mantiya bo`shlig`ida joylashadi.
Qon aylanish sistemasi	Yuragi tanasini-ng keyingi qismida, ichakning ustida joylashib,mark aziy qorincha va ikkita yon qorinchaadan tuzilgan. Ochiq sistema.	Yuragi bir juft qorincha va ikki juft yurak oldi bo`l masidan tashkil topgan. Qon aylanishi ochiq sistema.	Turlariga ko`ra ularnin yuraklari farqli ravishda har tuzilgan . Asimmetriyan i paydo bo`lishi qon aylanishda ko`plab reduksiyalarga sabab bo`lgan. Sistema ochiq.	Yuragib tanani-ng orqa tomonida,peri-kardiyda joylashgan. Bitta qorincha va ikkita bo`lmachadan iborat.Sistema ochiq.	Yuragi bitta qorinchadan, 2 yoki 4 bo`lma-chadan iborat. Bularda vena va artereiya kapillyarlari organlarda tuta-shib ketadi. Sis-tema ochiq
Ayrish sistemasi	Ichakning ikki yonida bukilgan bittadan naychalardan iborat.	6 juft buyrakdan iborat	Dastlab bir juft uzun tasma shakildagi buy-rak bo`lgan. Keyin u reduksi-yaga uchrab uning kengay-gan uchi perikardiy ikkin-chi uchi manti-yaga ochilgan.	Metanefridiyg a ohshash bir juft buyrakdan iborat.	2yoki 4ta buy-rakdan iborat. Buyraklarning ichki uchi selom perikardiysiga , ikkinchi uchi mantiya bo`shli-g`iga ochiladi.

https://wordlyknowledge.uz

Nerv sistemasi	Boshqa mollyus-kalarga nisbatan juda sodda bo`lib , halqali chuvalchangla r-nikiga ohshash qo`shaloq zanjirni eslatadi.	Yonbosh nervlilar-ga ohshash sodda qo`sh zanjirdan iborat.	Nerv sistemasi qo`sh zanjirdan iborat bo`lib. Nerv gangliyala-ri bo`lmaydi yoki juda kuchsiz rivojlan-gan.	3juft nerv gangliyalarida n iborat. Serebro-plevral qizilo`ngach ustida, pedal gangliyalar oyo-g`ida, vissebro-pariyetal gangli-yalar tanasining keyingi qismida joylashgan.	Ularning nerv sistemasi juda murakkab. Nerv gangliyalari juda yirik, ularning hammasi birgalikda halqum atrofi nerv massasini hosil qiladi.
Ko`payish sistemasi	Ayrim jinsli. Tuxumdon yoki urug`donlar ichak ustida joylashgan va toq bo`ladi.		Oldjabralilar ay-rimjinsli, o`pka-lilar va orqa jab-ralilar germora-dit bo`ladi. Jinsiy bezlarida bitta tuxumdon yoki urug`don, germofradit va-killarda bezdan iborat bo`ladi.	Ayrim jinsli, lekin jinsiy dimorfizm ko`zga tashlanmaydi. Jinsiy organlari bir juft.	Ular ayrim jinsli. Jinsiy bezlar toq bo`lib ,selomd a joylashgan.

Mollyuskalar orasida gigant vakillari ham bor bularga: kalmarlardan Architeuthis avlodi vakillari kirib tana uzunligi 6.6 metr , paypaslagichlari cho`zilganda esa 18 metrgacha yetib , ular hozirgi zamondagi eng yirik umurtqasiz hayvonlar hisoblanadi. Biroq tana uzunligi 1mm dan kichik Aplacophora ham bor . Chig`anoqli mollyuskalar kattaligi 1mm dan bir oz ko`proq bo`lib , bunga Microhedylidaee (orqa jabralilar) oila vakillari misol bo`ladi. Mollyuskalar turli xil joylarda uchrab , faqat doimiy muzliklarda , tog` cho`qqilarida va va qutb mintaqalarida yashamaydi . Ko`pchilik mollyuskalar faqat dengizlarda yashab (Aplacophora, Polyplacophora, Monoplacophora , Scaphopoda , Cephalopoda) hayot kechiradi . Faqat ozgina turlari (o`pkali mollyuskalar ) quruqlikda hayot kechirishga moslashgan. Dengizlarda mollyuskalar maksimal chuqurlikda yashab , chuqurlik ortgan sari yirtqich turlar soni ortib boradi. Dengiz marjon riflari , litoral qirg`oqlar va unga yaqin bo`lgan joylarda mollyuskalar bioxilma-xilligi yuqori bo`ladi. Mollyuskalar bir qator hayvonlar uchun ozuqa manbai hisoblanadi. Masalan , bosh oyoqli mollyuskalar bilan turli xil sut emizuvchilardan tishli kitlar , tyulenlar va yirik baliqlar oziqlanadi. Chuchuk suv mollyuskalari esa suvda suzib yuruvchi hayvonlar uchun, quruqlik mollyuskalari bir qator qushlar uchun ozuqa bo`ladi. Mollyuskalar inson hayotida muhim ahamiyatga ega bo`lib ulardan turli xil maqsadlarda foydalaniladi. Masalan tok shilli qurti (Fransiyada) , dengiz

quloqchasi (Xitoyda), bosh oyoqlilar O`rta yer dengizi atrofidagi mamlakatlarda oziq-ovqat sifatida foydalaniladi. Qorin oyoqli mollyuskalarning chig`anog`idan zebu ziynatlar yasashda foydalaniladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.O.Mavlonov, K.Saparov, N.Toshmanov ‘’Zoologiya’’ (Umurtqasiz hayvonlar) ‘’Navro`z’’ nashriyoti TOSHKENT-2018

2.X.Eshova , Sh.Xurramov, O.Mavlonov ‘’Umurtqasizlar zoologiyasi’’Toshkent 2006

3.Ochil Mavlonov ‘’ Zoologiya’’ ‘’O`zbekiston milliy ensiklopediyasi’’ Davlat ilmiy nashriyoti .Cho`lpon nomidagi nashriyot- matbaa ijodiy uyi Toshkent -2010

4.Zarif Norboyev, Shukur Xurramov, Ochil Mavlonov ‘’Umurtqasizlar Zoologiyasi’’ ‘’O`zbekiston’’

5.Muxammadiyev A.M ‘’Umurtqasizlar zoologiyasi’’ , ‘’O`qituvchi’’ 1976

WORDLY KNOWLEDGE